

## TO‘Y MAROSIMI QO‘SHIQLARI: TARIXIY MANBALAR VA FOLKLORSHUNOSLIKDAGI ILMIY YONDASHUVLAR

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.043>

Dilorom Muxammedova  
O‘zDSMI

**Annotatsiya:** Maqolada to‘y marosimi folklorining o‘rganilish tarixi va lokal xususiyatlari masalasi manba yig‘ish, nashr tajribasi hamda janrlarni nazariy talqin qilish yo‘nalishlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda to‘y marosimi aytimlarining manba bazasini shakllantirishda folklor ekspeditsiyalarining o‘rni, to‘y qo‘shiqlarining janrlar tizimidagi farqlanish mezonlari hamda hududiy muhit ta‘sirida yuzaga keladigan variantlilik va udumlar rang-barangligi yoritiladi. Lokal xususiyatlar marosimning o‘zi, ijro sharoiti, udumlarning ketma-ketligi va aytim matnlaridagi farqlar orqali namoyon bo‘lishi asoslanadi. Natijalar to‘y marosimi folklorini matn va marosim tizimi birligida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** to‘y marosimi folklori, nikoh to‘yi, marosim aytimlari, yor-yor, o‘lan, lapar, olqish, janr tizimi, variantlilik, lokal xususiyat, udum, etnofolkloristika, ijro an‘anasi, manba yig‘ish, folklor ekspeditsiyasi

## WEDDING CEREMONY SONGS: HISTORICAL SOURCES AND SCIENTIFIC APPROACHES IN FOLKLORE

Dilorom Mukhammedova  
UzSIAC

**Abstract:** The article analyzes the history of the study of wedding ceremony folklore and local features based on the areas of source collection, publication experience, and theoretical interpretation of genres. The study highlights the role of folklore expeditions in the formation of the source base of wedding ceremony songs, the criteria for distinguishing wedding songs in the genre system, and the variations and diversity of customs that arise under the influence of the territorial environment. It is based on the fact that local features are manifested through the ceremony itself, performance conditions, sequence of customs, and differences in the lyrics of the songs. The results indicate the need to study wedding ceremony folklore in the unity of the text and ritual system.

**Keywords:** wedding ceremony folklore, wedding, ritual songs, yor-yor, o'lan, lapar, applause, genre system, variation, local characteristics, tradition, ethnofolkloristics, performance tradition, source collection, folklore expedition

## KIRISH

Hozirgi folklorshunoslikda marosim folklori xalqning milliy o'zligini, tarixiy xotirasini va ijtimoiy tajribasini ifodalovchi qatlam sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, to'y marosimiga daxldor aytilmlar, qo'shiqlar va marosimiy nutq shakllarini janr tarkibi, tarixiy-genetik ildizlari hamda tarixiy-tadrijiy rivoji nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb yo'nalishlardan biri sanaladi. Bu jarayonda to'y marosimi folklorining nomoddiy madaniy meros tizimidagi o'rnini, marosim qo'shiqlarining struktural-semantik qurilishi, obrazlar tizimi va badiiy-estetik qiymati kabi masalalar tadqiqot markaziga chiqmoqda. Marosim folklori materiallarini yig'ish, tasniflash va tahlil qilish nafaqat folklor janrlarining ichki qonuniyatlarini ochishga, balki xalq badiiy tafakkurining taraqqiyot yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi<sup>1</sup>.

To'y marosimi folklori bir butun tizim bo'la turib, amaliy ijro jarayonida hududiy va mahalliy o'ziga xosliklar bilan rang-barang ko'rinish oladi. Har bir muhitda marosimning bosqichlari, ijro vaqti, ijrochilar tarkibi, aytilmlarning matn tuzilishi hamda vazifaviy yuklamasi turlicha namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Bugungi ijtimoiy-madaniy sharoitda to'y marosimlari ijro amaliyotida yangilanish, ixchamlashuv yoki aksincha, ko'rinishlarning kengayishi kabi holatlar ham uchramoqda; bu esa marosim aytilmlari mazmunida yangi g'oya va urg'ular paydo bo'layotganini ko'rsatadi. Demak, to'y marosimi folklorining tarixiy evolyutsiyasini, zamonaviy ijrodagi o'zgarishlarini hamda badiiy qatlamida saqlangan umuminsoniy g'oyalarni ushbu jarayon dinamikasi doirasida tahlil etish muhim ilmiy vazifadir.

## ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek va umuman turkiy xalqlar to'y marosimi folklorini ilmiy qayd etish hamda o'rganish jarayoni avvalo dalaga chiqib yozib olish amaliyoti bilan mustahkamlangan. XX asr o'rtalarida Muzayyana Alaviya tomonidan bir qancha viloyatlar bo'ylab tashkil etilgan kompleks folklor ekspeditsiyalari natijasida nikoh-to'y marosimida ijro etiladigan "Yor-yor", "Kelinsalom", "Kuyovsalom", "O'lan", "Lapar", "To'y olqishi", "Xush keldingiz" singari janrlar muntazam ravishda qayd etilib, matnlar yozib olingani ma'lum<sup>2</sup>. Keyingi davrlarda esa to'y qo'shiqlarining janr tabiati, ijro sharoiti va badiiy xususiyatlariga oid masalalar M.Alaviya, O.Sobirov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, N.Qosimov, O.Ismonova, R.Abdullayev, S.Davlatov, N.Shomamatov,

<sup>1</sup> Z.F.Kasimova "FARG'ONA VODIYSI TO'Y MAROSIM FOLKLORI (spetsifikasi, janrlar tarkibi va badiiy-pragmatik xossalari)" 10.00.08 – Folklorshunoslik Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI Toshkent – 2025 5-b

<sup>2</sup> Жўраев М. Музейна Алавия / Ўзбек фольклоршунослиги. Библиографик тадқиқот. – Тошкент: Firdavsshoh, 2021. – Б. 57–65.

L.Xudoyqulova, Sh.Imomnazarova, M.Murodova kabi olimlarning izlanishlarida turli rakurslarda yoritildi<sup>3</sup>. Mazkur ishlarda asosiy urg‘u to‘y marosimining tarkibi, undagi janrlarning vazifasi hamda ijrochilik an‘analarini kuzatish va tasniflashga qaratilgan bo‘lib, bu yo‘nalish bugungi tadqiqotlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Marosim ayimlari tarixiy manbalarda ham iz qoldirgan: turkiy to‘y qo‘shiqlarini til va madaniyat dalillari sifatida qayd etishning ilk manbalaridan biri Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari sanaladi. U mazkur asarda to‘yda aytiladigan qo‘shiqlarni “yir” nomi bilan keltiradi; bu atamaning ma‘nosini sharhlagan S.M.Mutallibov “yir”ni kuy-maqom tarzidagi ijro bilan bog‘laydi<sup>4</sup>. Shundan kelib chiqib, turkiy epik kuychilarning “jirov” nomi ham Koshg‘ariy tilga olgan “yir” tushunchasi bilan tarixiy aloqador bo‘lishi ehtimoli kuchli; demakki, “yir”ni qo‘shiq-ashula ma‘nosida qabul qilish ilmiy jihatdan asosli ko‘rinadi. E‘tiborlisi, to‘y marosimida keng tarqalgan “yor-yor”lar ham etimologik qatlamida turkiy “yir” bilan o‘zakdoshlikni saqlagan: dastlabki “yir” keyinchalik fonetik o‘zgarishlar jarayonida “yor-yor” ko‘rinishida ommalashgani haqidagi qarashlar izchil dalillanadi.

Ayrim turkiy guruhlar misolida kuzatiladigan an‘analar ham “yir”ning marosimiy qo‘shiq sifatidagi qadimiyligini ko‘rsatadi. Qo‘miq to‘y marosim folklori va uning sahnaviy talqini yo‘nalishida izlanish olib borgan A.N.Mollayev qiz dugonalari kelin bo‘layotgan tengquriga bag‘ishlab sevgi-muhabbat ruhidagi “yir” qo‘shiq kuylash odati saqlanib qolganini qayd etadi<sup>5</sup>. Bu turdagi dalillar marosim qo‘shiqlarining faqat matn emas, balki ijtimoiy vazifa, kayfiyat va marosim jarayonini boshqaruvchi vosita sifatidagi xususiyatini ham ko‘rsatadi. Shu qatorda, Alisher Navoiy ham “Mezon ul-avzon”da turk ulusining zufof va qiz ko‘chirish to‘ylarida aytiladigan “chinga” haqida to‘xtalib, uning kuchli ta‘sirchanligi va ko‘rinishlari borligini alohida qayd etadi<sup>6</sup>. Demak, to‘y qo‘shiqlari mumtoz manbalarda ham marosimning badiiy-sado qatlamini belgilovchi hodisa sifatida e‘tirof etilgan.

O‘tgan asrda olib borilgan folklorshunoslik ishlarning muhim qismi turli hududlarda yashovchi o‘zbeklar orasidan to‘y marosimlari va ular tarkibidagi janrlarni yozib olish, to‘plangan materiallarni nashrga tayyorlash bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu yo‘nalishda M.Alaviya avvalo to‘y marosim qo‘shiqlarini jamlab chop ettirishdan boshlagan, keyinchalik esa janrning tabiatini, ijro o‘rni va uslubini nazariy jihatdan izohlagan ilmiy tadqiqotlarni yaratgan<sup>6</sup>. Uning monografiyasida, xususan, o‘lan janrining o‘ziga xosligi, marosim tizimidagi vazifasi hamda boshqa to‘y janrlaridan

<sup>3</sup> Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 161-184; О‘sha muallif. Ўзбек фольклориди ўлан / Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 63–80;

<sup>4</sup> Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. III том. – Тошкент: Фан, 1963. – Б.9.

<sup>5</sup> Моллаев А.Н. Свадебно-обрядовый фольклор кумыков и его сценическое воплощение (общенациональное и локально-специфическое): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2012. – С. 10.

<sup>6</sup> Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. Монография. – Тошкент: Фан, 1974. – 222 б.

farqlanuvchi belgilari ilk bor mufassal yoritilgani ta'kidlanadi; nikoh to'yida kelin va kuyov tomon yigit-qizlari o'rtasida kechadigan o'lan bellashuvlari haqidagi qaydlar shular jumlasidandir. Shuningdek, ayrim joylarda to'y boshida qiz tomondan yangalardan yoshrog'i turli taqinchoqlar taqib, boshiga jelak yopib, yuzi ochiq holda otga minib, orqasiga o'smir bolani mindirib, uyma-uy yurib "falonchilikka o'langa" deb xabar tarqatishi haqidagi tavsif ham keltiriladi<sup>7</sup>. Bu ma'lumotlar o'lanxonlikning marosim tarkibida alohida bo'lak bo'lib shakllanganini ko'rsatadi; hozirgi ijro amaliyotida esa o'lan ko'pincha kelinni kuyov tomonga olib ketish jarayoniga yaqin holatda yangicha sharoitda ijro etilishi kuzatiladi.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

To'y marosimi folklorining o'rganilish tarixida M.Alaviya to'plagan materiallar nafaqat marosim ayimlari matnlarini jamlash, balki ularning ijro sharoiti, udumlar ketma-ketligi va ishtirokchilar tarkibini ham qayd etgani bilan ajralib turadi. Bu holat to'y marosimi folklorini faqat qo'shiq yoki she'riy matn sifatida emas, balki marosim tizimi ichida yashaydigan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin etish imkonini kengaytiradi. Alaviya qaydlarida uchraydigan etnografik tafsilotlar marosimning mahalliy tusini ochib beradi, udumlarning vazifasi va marosimiy matnning funksional yukini aniqlashga yordam beradi. Natijada to'y marosimi folklorining lokal xususiyatlari matn tarkibi bilan bir qatorda ijro muhiti orqali ham belgilanadigan ko'p qatlamli tuzilma ekanligi ko'rinadi.

XX asrning so'nggi choragida janrlar tizimi masalasiga nazariy yondashuv kuchaydi. Akademik To'ra Mirzayev lapar janrining o'ziga xos belgilarini, uning to'y marosimi folklori tarkibida "yor-yor", "o'lan" kabi janrlardan farqlanuvchi tomonlarini ilmiy mezonlar asosida asoslab berdi<sup>8</sup>. Bu yondashuv to'y marosimi folklorini janrlar kesimida tahlil qilishga yo'l ochdi, har bir janrning vazifalar doirasi, ijrochilik talablari hamda poetik qurilishini ajratib ko'rsatish zarurligini ko'rsatdi. Mirzayevning nazariy qarashlari 1990-yilda hammualliflikda chop etilgan darslikda ham izchil bayon etilib, marosim folklorini o'rganishda ta'limiy-ilmiy an'ananing shakllanishiga xizmat qildi<sup>9</sup>.

Yangi asrga kelib manbalarni to'plash jarayoni murakkablashgan bo'lsa-da, individual tashabbuslar hisobiga daladan material yig'ish ishlari uzilmadi. M.Jo'rayevning turli hududlarda el og'zidan yozib olgan nikoh to'yi marosim qo'shiqlari va udumlar bilan bog'liq ayimlari an'anaviy matnlarning yangi variantlari mavjudligini ko'rsatdi. 2003-yilda e'lon qilingan "Ostonasi tillodan" kitobida aynan shunday variantlar keltirilgani to'y marosimi folklorida variantlilikning kuchli ekanini tasdiqlaydi<sup>10</sup>. Keyingi bosqichda "yor-yor"larni alohida to'plam sifatida nashr ettirish

<sup>7</sup> Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари... – Б.162.

<sup>8</sup> Мирзаев Т. Ўзбек фольклорида лапар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998, № 1. – Б. 42-45.

<sup>9</sup> Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 304 б.

<sup>10</sup> Жўраев М., Тоҳиров Ў. Остонаси тиллодан. – Тошкент: Мозийдан садо, 2003. – 147 б.

tajribasi ham manba bazasini kengaytirdi: 2016-yilda M.Jo‘rayev va L.Xudoyqulova hamkorligida “Ikki ko‘ngil bir bo‘lsa” nomi ostida “yor-yor”lar jamlanmasi chop etildi. Ushbu nashrlar to‘y marosimi folklorini o‘rganishda matnlar bilan birga ularning ijro mantiqi, marosimdagi o‘rni va vazifasini qayta ko‘rib chiqish zaruratini kuchaytirdi.

Hududiy materiallar asosida yuritilgan izlanishlar lokal xususiyatlarni aniqlashda alohida ilmiy natija berdi. S.Mirzayeva tomonidan to‘y marosimlari folklorida “yor-yor”larning o‘rni masalasi tadqiq etilib, 2010-yilda “O‘zbekim “yor-yor”lari” qo‘llanmasi nashr etildi<sup>11</sup>. Bunday ishlar “yor-yor”ni faqat nikoh to‘yining bezagi sifatida emas, marosim bosqichlarini belgilovchi va jamoaviy hissiyotlarni boshqaruvchi badiiy vosita sifatida tushunishga olib keladi. Matn variantlaridagi farqlarni qiyosiy kuzatish esa lokal muhitning til, ohang, obrazlar va murojaat shakllariga qanday ta‘sir ko‘rsatishini ochadi.

Yangi asr folklorshunosligida to‘y marosim folklorini mavzuiy doirada umumlashtirishdan ko‘ra, marosim turlarini nikoh, beshik va sunnat bilan bog‘liq holda alohida tadqiq etish, marosim aytilmalarini janrlar kesimida tahlil qilish hamda hududiy farqlarni tadqiqot obektiga aylantirish yo‘nalishi kuchaydi. 2010-yillarda yaratilgan M.Murodova va Sh.Imomnazarova tadqiqotlari bu jarayonning muhim ko‘rinishlaridan sanaladi<sup>12</sup>. M.Murodova izlanishlarida “To‘sh qaytarar”, “kelin o‘tirsin”, “kuyov o‘tirsin” marosimlari va ularga bog‘liq qo‘shiqlar, nikoh to‘yi olqishlariga doir yangi materiallar tahlil qilinadi. Bu turdagi materiallar to‘y marosimi folklorining ichki tarkibi kengligini, ayrim udumlar matnli shaklda barqaror, ayrimlari esa ijro vaziyatiga bog‘liq o‘zgaruvchan ekanini ko‘rsatadi.

Mustaqillikdan keyingi davrda to‘y marosimi folklorini to‘plash, nashr qilish va ilmiy o‘rganish ko‘lami sezilarli kengaydi. M.Alaviya, B.Sarimsoqov, O.Safarov, M.Jo‘rayev, S.Davlatov, N.Quronboyeva, O.Ismonova kabi olimlarning izlanishlarida to‘y marosimi folklorining badiiy xususiyatlari va janr tabiati masalalari turli yo‘nalishlarda davom ettirildi. Lokal xususiyatlarni tizimli tadqiq etish borasida L.Xudoyqulovanning ishlari alohida e‘tiborga loyiq: “Surxondaryo to‘y marosim qo‘shiqlari” tadqiqotida vohaning nikoh to‘yiga oid materiallari izchil jamlanib, etnofolkloristik tahlil qilindi. Ushbu tadqiqotning natijaviy tomoni marosimiy udumlarning lokal nomlanishi, bajarilish tartibi va ularga bog‘langan aytilmalar kompleks tarzda qayd etilgani bilan bog‘liq. “Kuyov sinar”, “kuyov kiyintirar”, “o‘tin yorar”, “to‘qqiz tovoq”, “qari ilik”, “to‘n kiygizar”, “uzangi bardor”, “kampir o‘ldi”, “ipak iluv”, “bet ochar”, “eshik iluv”, “chimildiq uzar” kabi udumlarning qayd etilishi to‘y marosimi folklorining lokal xususiyatlari faqat matn tafovutlarida emas, marosimning o‘zida ham namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

<sup>11</sup> Мирзаева С. Ўзбегим ёр-ёрлари / ўқув кўлланма. – Андижон, 2010.

<sup>12</sup> Муродова М. Ўзбек никоҳ тўйи фольклорининг жанрлар таркиби ва бадияти (ўрта Зарафшон воҳаси материаллари асосида): Филол. фан. б. фал. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 55 б.;

## XULOSA

To'y marosimi folklorining o'rganilish tarixi ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish dastlab manba to'plash va matnlarni qayd etish bosqichidan boshlangan, keyinchalik esa janr tabiati, ijro qonuniyatlari va funksional vazifalarini ilmiy izohlash bilan boyigan. Qadimgi yozma dalillardan tortib zamonaviy ekspeditsion kuzatuvlargacha bo'lgan jarayon to'y marosimi aytimlarining milliy madaniyatdagi o'rnini aniqlash bilan birga, ularning tarixiy barqaror qatlamini ham, davr ta'sirida yangilanib boradigan qatlamini ham ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Olingan natijalar marosim folklorini faqat matnlar majmui sifatida talqin qilish yetarli emasligini, u marosim tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p tarkibli madaniy hodisa ekanini tasdiqlaydi.

Lokal xususiyatlar masalasi maqolaning markaziy natijalaridan biri sifatida to'y marosimi folklorining yashash shaklini yanada tiniqlashtirdi. Marosimiy udumlarning hududlar bo'yicha nomlanishi, bajarilish tartibi, ijrochilar tarkibi va aytim matnlaridagi leksik hamda obrazlar farqi lokal muhitning folklor jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Lokal xususiyatlar faqat matn darajasida emas, marosimning o'zida ham kuzatiladi: ayrim udumlar ayrim joylarda alohida marosim sifatida ajralib, boshqalarda esa boshqa bosqichlar tarkibiga singib ketadi; ayrim aytimlar marosimning muayyan vazifasini bajarib, jamoaviy hissiyot va marosim ritmini boshqaruvchi vositaga aylanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.F.Kasimova "Farg'ona vodiysi to'y marosim folklori (spetsifikasi, janrlar tarkibi va badiiy-pragmatik xossalari)" 10.00.08 - Folklorshunoslik Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI Toshkent - 2025 5-b
2. Jo'raev M. Muzayyana Alaviya / O'zbek folklorshunosligi. Bibliografik tadqiqot. - Toshkent: Firdavsshoh, 2021. - B. 57-65.
3. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. - Toshkent: Fan, 1974. - B. 161-184; O'sha muallif. O'zbek folklorida o'lan / O'zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. - Toshkent: Fan, 2010. - B. 63-80;
4. Koshg'ariy M. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). Uch tomlik. III tom. - Toshkent: Fan, 1963. - B.9.
5. Моллаев А.Н. Свадебно-обрядовый фольклор кумыков и его сценическое воплощение (общенациональное и локально-специфическое): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Махачкала, 2012. - С. 10.
6. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. Monografiya. - Toshkent: Fan, 1974. - 222 b.
7. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari...- B.162.
8. Mirzaev T. O'zbek folklorida lapar // O'zbek tili va adabiyoti. 1998, № 1. - B. 42-45.

9. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Darslik. - Toshkent: O‘qituvchi, 1990. - 304 b.

10. Jo‘raev M., Tohirov O‘. Ostonasi tillodan. - Toshkent: Moziydan sado, 2003. - 147 b.

11. Mirzaeva S. O‘zbekim yor-yorlari / o‘quv qo‘llanma. - Andijon, 2010.

12. Murodova M. O‘zbek nikoh to‘yi folklorining janrlar tarkibi va badiiyati (o‘rta Zarafshon vohasi materiallari asosida): Filol. fan. b. fal. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. - Toshkent, 2018. - 55 b.;